



Advanced Foreign Experiences In Training Service Dogs And Their Significance

**Associate Professor, Colonel
Karimjonova Munavvar
Ibragimovna**

**Professor of the Department of "Economic and Social Sciences" of
the Customs Institute, PhD (DSc)**

ABSTRACT

This article analyzes and examines the training of service dogs in the field of cynology in law enforcement agencies of the Republic of Uzbekistan, as well as advanced world experience. It also highlights scientific proposals and practical recommendations in the field of cynology.

Keywords:

Service dog, behavior, special training, innovative technologies, skill development, dog giving birth, service dog, training process, agricultural experience, American Kennel Club, Schutzhund (protection dog), Bundeswehr (German Armed Forces).

Kirish

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasidagi jahonda sodir bo'layotgan murakkab global jarayonlarni inobatga olgan holda Qurolli Kuchlarning qudrati, mamlakatning mudofaa qobiliyati va harbiy salohiyatini yanada oshirish borasida Qurolli Kuchlarning raqamli salohiyatini oshirish va axborot xavfsizligini ta'minlash, harbiy xizmatchilarning zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish borasidagi bilim va ko'nikmalarini oshirish. Qo'shinlarning jangovar ruhi va salohiyatini yuksaltirish, zamonaviy jang va harbiy mojarolar hamda xorijiy armiyalarning ilg'or tajribasini o'rganish asosida qo'shinlarning jangovar shayligi va mahoratini rivojlantirish, yagona global xavfsizlikni ta'minlash, favqulodda vaziyatlarda harakatlanish salohiyatini kuchaytirish va mintaqaning barcha davlatlari bilan tezkor axborot almashish, qo'shma o'quv mashg'ulot o'tkazish kabi yo'nalishlarda hamkorlikni chuqurlashtirish, chegara buzuvchilari harakatlarini

va qiyinlashtirish jihatdan jihozlanganlik darajasini oshirish[1] kabi belgilangan vazifalarni amalga oshirishda bojxona omilining ahamiyati ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ayniqsa, import o'rnini bosuvchi va eksportga yo'naltirilgan zamonaviy ishlab chiqarishlarni iqtisodiy dastaklar asosida rag'batlantirish, samarali tashqi iqtisodiy faoliyatni tashkil etish va erkinlashtirish, davlat byudjeti tushumlari ya'ni bojxona to'lovlarini o'z vaqtida undirilishini ta'minlash, mamlakatimiz ichki bozorini har tomonlama himoyalash, mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash va O'zbekistonning xalqaro nufuzini oshirish kabilarda namoyon bo'ladi.

Bu borada huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimida kinologiya sohasini tubdan isloh qilish va yanada takomillashtirishga oid bir qator me'yoriy huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, bojxona organlari tizimida ham bir qator islohotlar amalga oshirilib kelindi. Tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida davlat xizmatlarining shaffofligini va ulardan erkin foydalanish imkoniyatini, mamlakatning iqtisodiy manfaatlarini hisobga olgan holda, eksport-import operatsiyalarining mutanosibligini

ta'minlash tadbirkorlik faoliyatini jadal rivojlantirish, investitsiya va eksport salohiyatini oshirish, aholining turmush sharoiti hamda sifatini yaxshilashning eng muhim shartlari hisoblanadi[2].

Ta'kidlash joizki, bugungi kunda huquqni muhofaza qiluvchi organlarda kinologiya sohasi rivojlanib bormoqda. Bu borada xizmat itlarini maxsus yo'nalishga tayyorlash, kinologlarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini yanada oshirish, ilg'or xorijiy tajribalarni o'quv-o'rgatuv jarayoniga tadbiq etish va kinologiya sohasida xalqaro amaliyot almashinuvini yo'lga qo'yish hamda ushbu sohada ilmiy tadqiqot ishlarini yanada takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Jahonda kinologlarni tayyorlash va ular tomonidan xizmat itlarini boshqarishga o'rgatishning xalqaro tajribalari shuni ko'rsatadiki, jumladan, 2007-yilda qabul qilingan Isroil davlati tajribasi mavjud bo'lib, ularning o'ziga xos uslub (metod)lari qo'llanilmoqda.

Germaniyada XIX asr ohirlarida nemis ovcharkalarning yangi zoti yaratilgan.

Germaniyalik mashhur harbiy rotmister Maks Emil Frederik fon Shtefanis 1899-yilda "Nemes ovcharkalari Jamiyati" da ilk bora nemis ovcharkasi zotini yaratishida yangi standartlari qabul qilinishida va ular zotlarini takomillashtirish borasida ulkan hissa qo'shgan [4].

Rossiyalik bir qator olimlar V.P.Vasilyev, L.V.Krushinskiy, I.P.Pavlov, Ye.N. Mychko, Belenkiy V.A, N.P. Dyachenko, I.V, Novikova, V.I.Davydenko, A.P. Bednarlar tomonidan itlarning zotlari, ularning biologik tuzilishi, asab tizimlari hamda ularni tayyorlash borasida hamda T.O.Bunkova [3] A.A.Votinov, S.L. Bobyr, P.S. Osipovlar tomonidan harbiy itlarni tayyorlash asoslari, L.Yu.Denisova, V.S. Dorofeev, V.A. Demyanov, Don Silviya-Stasiyevich va Larri Keylar [8] tomonidan esa kinologlarni tayyorlashda kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish masalalarida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.

Shuningdek, zamonaviy rus olimlari P.C. Belkin, B.T. Bezlepkin, A.I. Vinberg, E.V. Garitovskaya, V.N. Grigoryev, C.B. Gurdin, Yu.T.

Tree-gin, P.P. Ishchenko, V.N. Maxov, M.P. Polyakov, M.V. Salteviskiy, V.I. Staro-voitov, E.A. Semenov, L.Yu. Denisovalar [7] tomonidan Rossiyada huquqni muhofaza qiluvchi organlarida kinologlar faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslarini aniqlash va takomillashtirish borasida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.

O'zbekistonlik olim, iqtisod fanlari doktori, professor R.A.Turapov [10] tomonidan O'zbekiston Respublikasida bojxona faoliyatini samaradorligini oshirish uslubiyati, holati, asosiy yo'nalishlari bo'yicha o'z tadqiqotlarini olib borgan.

Mamlakatimizda olib borilayotgan tub islohotlar zaminida barcha sohalar kabi, huquqni muhofaza qiluvchi organlarda ham jumladan, kinologiya yo'nalishida soha faoliyatiga xizmat itlarini tayyorlashda yangi innovatsion texnologiyalarni jumladan masofadan boshqarish amaliyotini o'quv-o'rgatuv jarayonlariga qo'llash metodologiyalarini takomillashtirish masalalari dolzarb vazifalarga aylangan.

Tahlil va natijalar

Bugungi kunda mamlakatimizda kinologiya sohasini ayniqsa huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimida ushbu sohasini takomillashtirishga oid bir qator huquqiy hujjatlar qabul qilingan.

Jahonda naslli it zotlarini yaratish va ko'paytirish hamda himoya qilish, yaratilgan it zotlarini davlatlar bo'yicha standartlarini tasdiqlash, kinolog va xizmat itlarini maxsus yo'nalishga tayyorlashda yangi it zotlarini yaratish hamda o'quv-o'rgatuv jarayonida qo'llash borasida alohida tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada Arizona State University (AQSH), Xelsinki universiteti tadqiqotchilari (Finlyandiya), Rossiya Kinologiya Federatsiyasi, Turkiya va Latviya Respublikasining bojxona tizimi, Rossiya Federatsiyasi

Ichki ishlar vazirligi universitetlari qoshidagi xizmat-qidiruv itlarini tayyorlash maktabi kabi nufuzli ilmiy tadqiqot markazlarida kinologiya sohasini rivojlantirishga oid tadqiqotlar olib borilib, salmoqli natijalarga erishilmoqda.

Biroq, xizmat itlarini o'rgatishda professional kinologlar tayyorlash hamda ular hisobini samarali yuritishda yangi texnologiyalarini yaratish borasida bir qator yechimini topishi zarur bo'lgan muammolar mavjud. Jumladan:

Genetik kasalliklar va nasliy omillar yo'nalishida - ko'p zotlarda nasliy kasalliklar kuzatiladi. Bu muammo zotlar sog'lig'ini yaxshilash uchun genetik tadqiqotlar va skrining dasturlari zarurligini ko'rsatadi.

Itlar xulqini o'rganish yo'nalishida - itlar xulq-atvori va psixologiyasi to'g'risida to'liq tushuncha yo'q. Tarbiya, ijtimoiylashuv va shartli reflekslar mexanizmlarini o'rganishga doir tadqiqotlarni olib borishni taqozo etmoqda.

Oziqlantirish va ovqatlanish muammolari bo'yicha - optimal oziqlantirish, turli zotlarga xos metabolik xususiyatlar, ovqat allergiyalari bo'yicha tadqiqotlar talab qilinadi va ozuqa mahsulotlarini hisobini yuritish bo'yicha raqamlashtirish zarur.

O'quv - o'rgatuv jarayoni metodikalarini takomillashtirish yo'nalishida - itlarning turli vazifalarni (xizmat, qutqaruv, terapiya) bajarishga o'rgatish metodikalarini ilmiy asosda yaxshilash muhim.

Zotlarni saqlash va bioxilma-xillikni ta'minlash yo'nalishida - "sof" zotlarni saqlash bilan genetik xilma-xillikni ta'minlash o'rtasidagi muvozanatni topish muammosi mavjud.

Xizmat itlarining samaradorligi yo'nalishida - xizmat itlarining qidiruv, qutqaruv va boshqa maxsus vazifalardagi samaradorligini oshirish va takomillashtirish usullarini muvofiqlashtirishda yangi zamonaviy texnologiyalarini yaratish (huquqni muhofaza qiluvchi organlarda yagona elektron

ma'lumotlar tizimi yaratish). Itlar sog'lig'i bo'yicha yangi texnologiyalar yo'nalishida - kasalliklarni erta aniqlash, davolash va profilaktika usullarini yaxshilash.

Itlar va odamlar o'rtasidagi munosabatlar yo'nalishida - it va inson o'rtasidagi bog'lanish mexanizmlari, itlarning inson emotsiyalarini tushunish qobiliyati.

Bu yo'nalishlardagi ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi. Buning natijasida kinologiya sohasini raqamlashtirish asosida yanada rivojlantirishga erishiladi.

Ta'kidlash joizki, xizmat itlarini tayyorlash-bu murakkab va bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan jarayon bo'lib, u har bir davlatda o'ziga xos yondashuvlarga ega. Quyida dunyoning ilg'or davlatlarida qo'llaniladigan tajribalarni tahlil qilamiz.

Bugungi kunda jahonda rivojlangan davlatlar jumladan:

AQSHda eng yirik kinologik tashkilot- Amerika Kennel Klubi (AKC) joylashgan bo'lib, bu tashkilot kinologiya sohasi yo'nalishi bo'yicha bir qator markaz va oliygohlarni o'ziga birlashtirgan. Bu klub tarkibidagi oliygoh va markazlarda xizmat itlarini politsiya va harbiy itlarni tayyorlash, shuningdek xizmat itlarni qutqaruv yo'nalishlarga o'rgatish bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar olib boriladi.

Amerika Kennel Klubi (AKC) - bu AQShdagi naslli itlarning eng yirik va eng qadimgi ro'yxatga olish tashkiloti. 1884-yilda tashkil etilgan AKC it zotlari hamda it sporti bo'yicha tan olingan yetakchi hisoblanadi.

AKCning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat (9.1-jadval).

9.1-jadval

Amerika Kennel Klubining asosiy vazifalari

T/R	Belgilangan vazifa turlari	Ularining bajarish mohiyati
1.	Naslli itlarni ro'yxatga olish	AKC sof zotli itlarning nasl daftarini yuritadi. Bu itlarning kelib chiqishi va naslini kuzatish imkonini beradi.
2.	It sporti va tadbirlarini tashkil etish	AKC itlarning turli sport turlari va tadbirlarini, jumladan, ko'rgazmalar (dog

		shows), itoatkorlik (obedience), chaqqonlik (agility), ovchilik (field trials) va boshqalarni tashkil etadi va homiylik qiladi. Bu tadbirlar itlarning qobiliyatlarini namoyish etish va it egalari o'rtasida hamjamiyatni rivojlantirishga yordam beradi.
3.	Zot standartlarini belgilash	Har bir tan olingan it zoti uchun AKC ideal fizik xususiyatlar, temperament va harakatlarni belgilaydigan zot standartlarini ishlab chiqadi.
4.	Itlarning salomatligi va farovonligini qo'llab-quvvatlash	AKC Itlar Salomatligi Jamg'armasi (AKC) Canine Health Foundation) orqali itlarning genetik kasalliklari va boshqa sog'liq muammolarini o'rganishga mablag' ajratadi. Shuningdek, AKC itlarning mas'uliyatli egaligini targ'ib qiladi.
5.	Jamoatchilikni ta'limlash	AKC it zotlari, ularning xususiyatlari va itlarni parvarish qilish bo'yicha jamoatchilikni xabardor qilishga qaratilgan turli dasturlar va materiallarni ishlab chiqadi.

Hozirgi kunda AKC 200 ga yaqin it zotini tan oladi. Har bir zot o'ziga xos tarixi, xususiyatlari va maqsadiga ega. AKC it zotlarini 7 ta asosiy guruhga bo'ladi:

Sport guruhi (Sporting Group): Ov qilishda yordam berish uchun yetishtirilgan itlar (masalan, labrador retriever, golden retriever, pointer).

Ov guruhi (Hound Group): Hid yoki ko'rish orqali o'ljani kuzatish uchun yetishtirilgan itlar (masalan, bigl, basset hound, greyhound).

Ishchi guruhi (Working Group): Qo'riqlash, tortish va qutqaruv kabi vazifalarni bajarish uchun yetishtirilgan itlar (masalan, nemis ovcharkasi, boxer, siberian husky).

Terrier guruhi (Terrier Group): Kemiruvchilar va boshqa kichik hayvonlarni ovlash uchun yetishtirilgan itlar (masalan, jek rassel teriyeri, bull terrier, scottish terrier).

O'yinchoq guruhi (Toy Group): Kompanyon sifatida yetishtirilgan kichik itlar (masalan, chihuahua, pomeranian, pekingese).

Nospor guruhi (Non-Sporting Group): Ma'lum bir ishchi vazifasiga ega bo'lmagan, ammo o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan itlar (masalan, bulldog, dalmatian, poodle).

Qoramol guruhi (Herding Group): Chorva mollarini boshqarish uchun yetishtirilgan itlar (masalan, border kolli, avstraliya ovcharkasi, belgian malinois).

AKC nafaqat itlarni ro'yxatga olish bilan shug'ullanadi, balki it egalari va it zotlari klublari uchun muhim resurs markazi hamdir. Tashkilot itlarning salomatligi, ta'limi va mas'uliyatli egaligi masalalarida faol rol o'ynaydi.

Buyuk Britaniyada - dunyoda eng qadimgi mashhur Kennel Klubi tashkil topgan bo'lib, unda dunyodagi eng nufuzli it tanlovlaridan o'tkaziladi hamda it zotlari seleksiyasi bo'yicha ilmiy ilg'or tajribaga ega.

Germaniya davlatida - Schutzhund (himoya iti) dasturi yaratilgan, nemis ovcharka zoti seleksiyasi hamda politsiya itlarini tayyorlash bo'yicha yuqori standartlar ishlab chiqilgan. Federal politsiya kinologik xizmati yuqori darajada tashkil etilgan.

Ta'kidlash joizki, Germaniya xizmat itlarini tayyorlash bo'yicha eng ilg'or mamlakatlardan biri sanaladi. Bu yerda xizmat itlarini tayyorlashdagi asosiy tamoyillar quyidagilardan iborat:

Bundeswehr (Germaniya Qurolli Kuchlari) va Politsiya maktablarida xizmat itlari uchun alohida kinologiya bo'limlari mavjud.

Nemis ovcharkasi (Deutscher Schäferhund) eng ko'p tayyorlanadigan zotlardan biri hisoblanadi.

Tayyorlov itoat, qidiruv, himoya va izlab topish bosqichlarini o'z ichiga oladi.

Tayyorlovda pozitiv motivatsiya, ya'ni mukofotlash tizimi asosiy metod sifatida qo'llaniladi.

IPO (Internationale Prüfungs-Ordnung) - xizmat va sport itlari uchun xalqaro test tizimi aynan Germaniyada ishlab chiqilgan.

Bundeswehr (Germaniya Qurolli Kuchlari) va Politsiya maktablarida xizmat itlari uchun alohida kinologiya bo'limlari mavjud va ular har ikki sohada ham muhim rol o'ynaydi. Quyida ularning har biriga oid umumiy ma'lumotlar berilgan.

Bundeswehr (Germaniya Qurolli Kuchlari) Kinologiya Bo'limi

Germaniya Qurolli Kuchlarida (Bundeswehr) kinologiya bo'limi maxsus vazifalar uchun xizmat qiluvchi itlarni tayyorlash va ularni foydalanishga joylashtirishni o'z ichiga oladi. Bundeswehrning kinologiya bo'limi turli harbiy vazifalar uchun malakali itlarni tayyorlaydi. Bu itlar asosan xavfsizlikni ta'minlash, razvedka ishlari, terrorizmga qarshi kurash va harbiy operatsiyalarda yordam berish uchun ishlatiladi (9.1-rasm).

Bundeswehr (Germaniya Qurolli Kuchlari) Kinologiya Bo'limida kinologlar tayyorlanishi

Bundeswehrda xizmat itlari bilan ishlash uchun kinologlar maxsus tayyorgarlikdan o'tadilar. Bu tayyorgarlikda itlar bilan ishlash, ularning sog'lig'ini nazorat qilish, ularni turli sharoitlarga moslashtirish kabi malakalar o'rganiladi.

Politsiya Maktablaridagi Kinologiya Bo'limining asosiy vazifalari

Germaniyada politsiya ham alohida kinologiya bo'limlariga ega bo'lib, ular asosan jamoat xavfsizligini ta'minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish va boshqa xavfsizlik vazifalarini bajarish uchun xizmat qiladi. Politsiya itlari, asosan, jinoyatchilikni aniqlash, narkotik

moddalarning mavjudligini tekshirish, izlarni kuzatish va xavfsizlikni ta'minlash uchun ishlatiladi.

Xulosa

Kinologiya – bu faqat itlar haqida fan emas, bu insoniyat xavfsizligi, sadoqat va hamkorlikning timsolidir. U zamonaviy

jamiyatda katta ahamiyat kasb etadi: xavfsizlik, salomatlik, madaniyat, sport va fan sohalarida o'z o'rniga ega.

Kelajakda sun'iy intellekt, robototexnika va genetik muhandislik bilan uyg'unlashgan kinologiya sohasining yanada rivojlanishi kutilmoqda.

Xizmat itlarini tayyorlash - bu faqat fizika va buyruqlarni o'rgatish emas, balki kompleks yondashuvni talab qiladigan ilmiy va amaliy jarayondir. Ushbu sohaga zamonaviy texnologiyalar, psixologik yondashuv va fan-texnika yutuqlarini joriy etish orqali tayyorlov uslubiyatini yanada takomillashtirish mumkin.

Bugungi kunda xizmat itlarini mikrochip asosida hisobini yuritish masalalari hozirgi zamon kinologiyasida juda dolzarb bo'lib, xavfsizlik, nazorat va samaradorlikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-son Farmoni.2023 — yil 11-sentyabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. 2022-yil 28-yanvar.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari kinologiya bo'linmalarining faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 403/11-son Qarori. 2024-yil 10- iyul.
4. Karimjonova M.I. Huquqni muhofaza qiluvchi organlarda xizmat itlarini maxsus yo'nalishga tayyorlashda innovatsion texnologiyalarni qo'llash metodologiyasini takomillashtirish masalalari. Monografiya. - Toshkent 2023.(sentyabr). 229 b.
5. 21. Stepanov V. "Vse o dressirovke sobak" Maskva, 2020.
6. 22. Platonova T.L., "Dressirovka bez nakazaniya" Maskva, 2021.

7. 24.Filatovoy A. "Dumati kak sobaka" Maskva, 2021.
8. 25.Platonova T.L., "Dressirovka bez nakazaniya" Maskva, 2021.
9. www.dressirovka.spb.ru/index.html
10. www.bestdog.narod.ru
11. www.dogs.report.ru
12. www.dissercat.com.